



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

● WWW.XS.UZ ●

E-mail: info@xs.uz ●

2026-yil 30-iyul, № 154 (9325)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI «KELAJAK O'YINLARI»NING OCHILISH MAROSIMIDA ISHTIROK ETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-iyul kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Davlatimiz rahbari Ostona shahrida "Kelajak o'yinlari" uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

"Baris Arena" muz saroyida o'tkazilgan tadbirda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va boshqa xorijiy mehmonlar ham qatnashdi.

Marosim ishtirokchilariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin videomurojaat yo'lladi.

Tadbinning tantanali qismida fijital-sportning mazmun-mohiyati, ya'ni raqamli bellashuvlarni an'anaviy sport turlari hamda jismoniy faollik bilan birlashtiruvchi yo'nalishlari haqida ma'lumot berildi. Musobaqaning g'oyasi yoshlarni an'anaviy sport bilan shug'ullanishga da'vat etishdir.

Davlatimiz rahbari xalqaro turnir ishtirokchilarini qutladi.

Shu kuni sport va texnologiyalar vazirlari, diplomatik missiyalar rahbarlari hamda boshqa yuqori martabali vakillar ishtirokida fijital-sport bo'yicha sammit ham bo'lib o'tdi.

Birinci "Kelajak o'yinlari" 2024-yili Qozon shahrida o'tkazilgan. Uning ochilish marosimida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan edi. Ikkinchi turnir esa 2025-yilda Abu-Dabi shahrida bo'lib o'tdi.

Bu galgi musobaqalarda O'zbekiston vakillari fijital-futbol, lazertag va raqs yo'nalishlari bo'yicha bellashadi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

STON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN QIRC'IZISTONDA BO'LADI

O'ZBEKIO'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 30-iyul – 1-avgust kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston – Qirg'iziston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, o'zaro savdo hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, transport sohasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda madaniy-gumanitar almashinuvlarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Sammit yakunlari bo'yicha O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama hujjatlar to'plamini imzolash rejalashtirilgan.

Tashrif dasturiga muvofiq, Prezidentimiz Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining norasmiy Maslahat uchrashuvi va boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

O'ZA.

O'zbekiston va Qirg'iziston:

TARIXIY YAQINLASHUVDAN UMUMIY KELAJAK SARI

Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahri tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqelik arafasida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'izistonga davlat tashrifi ikki davlat iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi kutilayotir.

Nuqtai nazar

Sammit oldidan "Qirg'iziston – O'zbekiston: sanoat kooperatsiyasi, investitsiyalar va savdo" biznes forumi o'tkazildi. Unda 300 ga yaqin yirik tadbirkor va biznes vakillari ishtirok etgani, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, charm-poyabzal, mebel, kimyo va plastmassa mahsulotlari, farmatsevtika, elektr texnikasi, savdo, import-eksport, logistika, turizm hamda xizmatlar sohalarda o'zaro muzokaralar o'tkazilgani yangidan-yangi loyihalarga yo'l ochdi. Ayniqsa, O'sh viloyatida to'qimachilik-tikuvchilik klasteri hamda industrial-logistik markaz barpo etish kabi aniq loyihalarni hayotga tatbiq qilishga kelishib olingani e'tiborga molik.

Ushbu nufuzli biznes uchrashuvi oldidan 21-iyul kuni Bishkekda ikki mamlakat rahbarlari tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekiston – Qirg'iziston ekspertlar kengashining ikkinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. "O'zbekiston va Qirg'iziston: strategik sheriklik va uni yanada rivojlantirish istiqbollari" mavzuidagi anjumanda tahlilchilar, rasmiy doira va biznes vakillari chegaradagi eski bahslarni emas, balki siyosiy yaqinlashuvni qanday qilib iqtisodiy mazmun bilan to'ldirish lozimligini muhokama etishdi. Bunda iqtisodiy yo'nalishga alohida e'tibor qaratildi: o'n yil avval o'zaro savdo aylanmasi 100 mln. dollardan sal oshgan ko'lsa, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 1,2 mlrd. dollarga yaqinlashdi. O'tgan yilning o'zida savdo hajmi qariyb 40 foizga o'sdi.

Bugungi kunda tomonlar shunchaki savdo aylanmasini oshirishdan chuqur sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va qo'shma ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishga o'tayotgani quvonarli. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarni shunday taraqqiyot bosqichiga yetdiki, endilikda hamkorligimiz muvaffaqiyatli yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish qobiliyatiga emas, balki ochilayotgan imkoniyatlardan birgalikda samarali foydalanish mahoratiga bog'liq.

➔ 3

Deputatlar – hududlarda

AHOLI MANFAATLARINI TA'MINLASHGA QARATILGAN OCHIQ MULOQOTLAR

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylov okruglaridagi mahallalar, xonadonlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarda bo'lib, aholi bilan ochiq va samarali muloqotlar o'tkazmoqda.

Uchrashuvlar davomida Prezidentimiz raisligida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining 2026-yil birinchi yarmi yakunlari, shuningdek, yoqilg'i-energetika sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishlarida belgilangan topshiriqlar mazmun-mohiyati keng tushuntirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan muhim tashabbuslar, qabul qilinayotgan qonunlar va ularning aholi hayotidagi ahamiyati saylovchilarga yetkazilyapti. Shu bilan birga, joylardagi mavjud muammolar atrofiga o'ranganiib, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko'rilmogda.

➔ 2

O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrlri vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, butun O'zbekiston xalqini yurtimizda keng nishonlanayotgan qutlug' ayyom – Xalqlar do'stligi kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Hech shubhasiz, ushbu quvonchli bayramda ko'p millatli xalqimizning oliyanob intilishlari, amaliy harakatlari bilan jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, millatlar va dinlararo do'stlik, bag'rikenglik hamda hamjihatlik bizning eng bebaho boyligimiz ekanini yanada chuqur his etamiz.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ziyod millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari bir oila farzandlari kabi ahil va inoq yashab, mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotganini barchamiz yuksak qadrlaymiz.

G'oyat noyob ijtimoiy hodisa bo'lgan bunday milliy-madaniy xilmaxlilik Yangi O'zbekistonning har bir fuqarosi, millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin va farovon yashaydigan insonparvar davlat sifatidagi o'rni hamda nufuzini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Keyingi yillarda "Bizning kuchimiz – birlik va hamjihatlikda" degan ezgu g'oya asosida yurtimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning o'ziga xos ibratli modelini yaratganimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Hozirgi vaqtda millatlararo munosabatlarni sohasida amalga oshirayotgan islohotlarimiz ko'lamini tobora kengayib, sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu borada qabul qilingan 10 ta normativ-huquqiy

hujjat, jumladan, Millatlararo munosabatlarni sohasida davlat siyosati konsepsiyasi faoliyatimiz samarasini oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda ko'rkam binolarda faoliyat yuritayotgan 157 ta milliy madaniy markaz va 46 ta do'stlik jamiyatining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Ushbu maskanlarda o'tkazilayotgan umummilliy bayramlar, do'stlik kechalari, festival va uchrashuvlar mamlakatimizning madaniy qiyofasini belgilaydigan muhim ma'rifiy tadbirlarga aylanib bormoqda.

Yurtimizdagi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari yetti tilda olib borilmoqda, qardosh tillardagi maktablar davlat hisobidan darslik va adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Teleradiokanallar orqali 12 tilda ko'rsatuv va eshittirishlar efirga uzatilmoqda, 14 tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda.

O'tgan yili Xalqlar do'stligi kuni arafasida poytaxtimizda ochilgan Milliy madaniy markazlarning pavilyoni xalqaro jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilib, ko'plab xorijlik mehmonlar ham tashrif buyuradigan maskanga aylandi.

Poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" parki hududida "Bag'rikenglik bog'i", Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda etno va sayyohlik qishloqlari tashkil etilgani mazkur yo'nalishdagi faoliyatni kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Turli millatga mansub yurtdoshlarimiz orasida o'nlab deputat va senatorlar, davlat va jamoat arboblari, taniqli ishlab chiqarish, ilm-fan,

madaniyat, san'at va sport namoyandalari, biznes vakillari munosib faoliyat ko'rsatayotgani, ularning 2 ming nafarga yaqini Vatanimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlangani mamlakatimizda hukm surayotgan ijtimoiy tenglik, adolat va inklyuzivlikning amaliy namunasi, desak, to'g'ri bo'ladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Bepoyon Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining qadimdan mustahkam maqsadlar asosida yashab, mehnat qilib, taraqqiyot borasida qanday ulkan natijalarga erishganlari, bunday ezgu an'analar keyingi yillarda yanada kuchayib, yangi bosqichga ko'tarilayotganini barchamiz ko'rib turibmiz.

Biz qo'shni davlatlar bilan do'stlik, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni mustahkamlab, strategik sheriklik va ittifoqchilikni yanada rivojlantirmoqdami.

Xalqlarimiz o'rtasida erkin bordi-keldilar, iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar kengayib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib borayotgani, bunday hayotbaxsh jarayonlarda O'zbekistonning alohida o'rni va hissasi borligi, ayniqsa, diqqatga sazovor.

So'nggi yillarda sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda xalqlar do'stligini mustahkamlash yo'lida erishgan yutuqlarimizni yanada boyitish biz uchun bundan buyon ham bosh vazifa bo'lib qoladi.

Barchamiz yaxshi bilamiz, turli millat vakillarini o'zaro yaqinlashtirishda san'at va madaniyat hamisha ma'naviy ko'priklar vazifasini

bajarib kelgan. Har qaysi millatning betakror san'atini ayni shu asosda rivojlantirish bu – umumbashariy birlik va ahillikka olib boradigan eng ishonchli yo'l.

Shu maqsadda mamlakatimizda turli millat va elat vakillaridan tarkib topadigan professional "Do'stlik" ansamblini tashkil etishni reja qilganmiz va buning uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

O'ylaymanki, mazkur yangi ijodiy jamoa ana shunday qulay muhitda shakllanib va rivojlanib, mamlakatimiz madaniy hayotida albatta munosib o'rin egallaydi.

Qadrlri do'stlar!

Hech qachon unutmaylik, xalqlar do'stligi bu – muqaddas insoniy qadriyat, tinch, erkin va farovon hayot garovi. Bugungi kunda barchamiz o'zimiz, oilamiz, farzandlarimizning baxti, jonajon O'zbekistonimizning taqdiri va kelajagi uchun yagona xalq, yagona jamiyat bo'lib harakat qilayotgan ekanimiz, yuksak maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Siz, azizlarni, butun xalqimizni 30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, oilaviy baxt, mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi oliyanob faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

O'zbekistonimiz doimo tinch va barqaror bo'lsin, birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan yanada gullab-yashnasin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Yig'ilish

PARLAMENT VA DEPUTATLIK NAZORATI KUCHAYTIRILADI

Davlatimiz rahbari tomonidan energetika sohasini rivojlantirish va mahallalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda parlament nazoratining mavjud mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Parlamentning asosiy vazifasi ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish, davlat dasturlari va qabul qilingan qarorlarning hududlardagi ijrosini tahlil etish, aholini qiynayotgan muammolarni aniqlash hamda ularning yechimi bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Shu bois senatorlar va mahalliy Kengashlar deputatlari joylardagi

muammolarni tizimli o'rganishi, ularni bartaraf etish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida amaliy choralar ko'rishi bugungi kunning ustuvor vazifasidir.

Oliy Majlis Senatida ayni shu masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Senat Raisi Tanzila Norboyeva xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari bilan uchrashdi.

➔ 2

30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni

TINCHLIK, BAG'RIKENGLIK VA HAMJIHATLIK POYDEVORI



Inson qadri ulug'langan, millatlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch mustahkam qaror topgan jamiyatda tinchlik barqaror, taraqqiyot izchil, kelajak esa ishonchli bo'ladi. Shu ma'noda, xalqlar do'stligi nafaqat yuksak ma'naviy qadriyat, balki har qanday davlatning barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlaydigan beqiyos kuchdir.

30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan tayyorlangan maxsus sahifamizda Yangi

O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, xalqlar o'rtasidagi ahillikni yanada kuchaytirish, Prezidentimiz rahbarligida qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch va strategik hamkorlikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish borasida amalga oshirilayotgan ezgu sa'y-harakatlar haqida so'z yuritiladi.

4- sahifaga qarang. ➔

Oʻzbekiston va Qirgʻiziston:

TARIXIY YAQINLASHUV DAN UMUMIY KELAJAK SARI



Markaziy Osiyo mintaqasidagi ikki birodar, tarixiy va madaniy jihatdan yaqin boʻlgan Oʻzbekiston va Qirgʻiziston oʻrtasidagi munosabatlar soʻnggi yillarda misli koʻrilmagan darajada ijobiy dinamikaga ega boʻlmoqda. Uzoq yillar davomida chegara muammolari, suv resurslari boʻyicha kelishmovchiliklar va iqtisodiy toʻsiqlar davri ortda qolib, ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va uzoqni koʻzlagan strategiyasi tufayli oʻzaro munosabatlar yangi, strategik sheriklik bosqichiga qadam qoʻydi. Bu jarayon nafaqat ikki mamlakat, balki butun mintaqaning kelajagini belgilovchi ahamiyatga ega.

1991-yilda ikki davlat mustaqillikka erishgach, qator murakkab muammolar bilan yuzma-yuz keldi. 1378 kilometrlik umumiy chegaraning katta qismi aniqlanmagan yoki bahsli hududlardan iborat edi. Bu chegaraoldi hududlarida aholi oʻrtasida doimiy nizolar, toʻqnashuvlar va ijtimoiy keskinliklarni keltirib chiqarardi. Nazorat oʻtkazish punktlarining yopiqligi ham fuqarolarning harakatlanishi va chegaraoldi savdosiga toʻsiq boʻlardi. Qirgʻiziston Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan davlat sifatida suv resurslarini boshqarishda katta ahamiyatga ega. Oʻzbekiston esa past oqimdagi yirik qishloq xoʻjaligi mamlakati sifatida Qirgʻizistondan keladigan suvlarga bogʻliq edi. Suvdan foydalanish, gidroenergetika inshootlarining ishlash rejimi boʻyicha kelishmovchiliklar yillar davomida munosabatlarni sovuqlashtirdi. Chegara toʻsiqlari, viza rejimlari va iqtisodiy proteksionizm sabab, oʻzaro tovar aylanmasi juda past darajada qolib ketdi. Bu ikki davlatning iqtisodiy potensialidan samarali foydalanishga imkon bermadi. Yuqori darajadagi punktlarining cheklangan boʻlib, koʻpincha mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan boʻlsa-da, uzoq muddatli strategik hamkorlik uchun yetarli ishonch muhiti shakllanmagan edi. Bu davr ikki mamlakat uchun mintaqaviy hamkorlikning qanchalik muhim ekanligini, lekin ayni paytda oʻtmishdagi merosning qanchalik ogʻir sinov boʻlishi mumkinligini koʻrsatib berdi.

2016-yildan keyin Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati tufayli Markaziy Osiyo Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishi etib belgilandi va qoʻshni davlatlar bilan doʻstona, ochiq va pragmatik munosabatlar oʻrnatishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Bu siyosat Qirgʻiziston tomonidan ham faol qoʻllab-quvvatlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning tashabbusi va qatʼiy siyosiy irodasi tufayli ikki tomonlama kun tartibidagi eng prinsipial va murakkab vazifa – davlat

chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalasi muvaffaqiyatli hal etildi.

2023-yil yanvar oyida uzunligi 1378 kilometr boʻlgan Oʻzbekiston – Qirgʻiziston davlat chegarasi toʻgʻrisidagi kelishuv ratifikatsiya yorliqlari almashilgandan soʻng qonuniy kuchga kirdi. Bu ikki mamlakat mustaqilligi tarixidagi eng yirik siyosiy yutuqlardan biri boʻldi. Chegara masalasiga yechim topilishi ikki mamlakat oʻrtasidagi ishonch muhitini mustahkamladi. Chegara oʻtkazish punktlarining aksariyati faoliyatini qayta boshladi, ayrimlari esa tunu kun ishlaydigan rejimga oʻtkazildi. Bu esa chegaraoldi hududlarida xavfsizlikni oshirib, investorlar uchun xatarlarni kamaytirdi, oʻzaro savdoni va fuqarolarning harakatlanishini jonlantirdi.

Siyosiy yaqinlashuvning asosiy maqsadi – iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish. Oʻzbekiston va Qirgʻiziston oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar soʻnggi yillarda misli koʻrilmagan oʻsish surʼatlarini namoyish etmoqda. Bugungi kunga kelib oʻzaro tovar aylanmasi 1,2 mlrd. dollarga yetdi. Endigi maqsad – bu

tashkil etish orqali qurilish materiallari ishlab chiqarish va foydali qazilmalarni qazib olish boʻyicha hamkorlik ham muhim yoʻnalishlardandir.

Mintaqadagi eng muhim strategik masalalardan biri – suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish. Bu borada “Qambarota GES-1” loyihasi bayroqдор hisoblanadi. Ushbu loyiha ikki mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshiradi. Mintaqada suvdan foydalanish tartibini yanada muvozanatli va oldindan prognoz qilinadigan holatga keltiradi. Loyihaning muvaffaqiyati mintaqadagi suv-energetika balansini uchun katta ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun dengizga chiqish yoʻllarining uzozligi global savdoda asosiy toʻsiqlardan biri. Shu bois transport-logistika yoʻlaklarini rivojlantirish Oʻzbekiston va Qirgʻiziston hamkorligining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli loyihasi ikki davlatga Xitoy bozoriga yangi va qisqa yoʻl bilan chiqish, shuningdek, Yevropaga tranzit yoʻnalishlarini

Bugungi kunda Xitoy, Qirgʻiziston va Oʻzbekiston oʻrtasidagi avtomobil yuk tashuvlari hajmi Xitoy va Qozogʻiston koʻrsatkichlaridan bir necha barobar oshgan. Bu esa logistika yoʻlaklarining samaradorligi va chegaralarning “nazorat chizigʻi” emas, balki “hamkorlik koʻprigi”ga aylanayotganini tasdiqlaydi. Oʻzbekiston – Qirgʻiziston Taraqqiyot jamgʻarmasi ham hamkorlikning muhim namunalaridan. Umumiy kapitali 200 mln. dollargacha boʻlgan bu jamgʻarma toʻqimachilik, energetika, logistika va shahar infratuzilmasi sohalaridagi qoʻshma loyihalarni moliyalashtirish uchun asosiy vosita boʻlib xizmat qilmoqda. Hozirgacha 100,5 mln. dollarlik 37 ta loyiha maʼqullangan.

Oʻzbekiston va Qirgʻizistonning bir-biri uchun ahamiyati faqatgina iqtisodiy raqamlar bilan cheklanmaydi. Bu ikki davlat mintaqaviy xavfsizlik, ijtimoiy-madaniy almashinuv va geosiyosiy barqarorlik uchun ham oʻta muhim. Deylik, Oʻzbekistonning iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyatlari, yirik bozori Qirgʻiziston tovarlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Oʻzbekistonning investitsiyalari Qirgʻiziston iqtisodiyotiga jon kiritmoqda. Oʻzbekistonning mintaqadagi logistik xab sifatidagi mavqei Qirgʻizistonga yangi tranzit yoʻlaklaridan foydalanish imkonini beradi. Qirgʻiziston ham Oʻzbekiston uchun muhim, albatta. “Qambarota GES-1” kabi yirik energetika loyihalari Qirgʻizistonning energetika salohiyatini oshiradi va mintaqaviy energetika xavfsizligini taʼminlaydi. Qirgʻiziston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining toʻlaqonli aʼzosi boʻlgani sababli, Oʻzbekiston uchun ushbu mamlakat orqali mazkur yirik bozorga chiqish imkoniyati paydo boʻladi. Bu Oʻzbekiston tovarlarining diversifikatsiyasi uchun gʻoyatda muhim. Kuchli va barqaror Oʻzbekiston Qirgʻizistonning janubiy chegaralari va umuman mintaqaviy xavfsizligi uchun muhim kafolat hisoblanadi. Barqaror va rivojlanayotgan Qirgʻiziston Oʻzbekistonning shimoliy chegaralarini xavfsizligi va umumiy Markaziy Osiyodagi xavfsizlik muhitini mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi.

Iqtisodiy sheriklikning kelajagi faqat tovar aylanmasi bilan oʻlchanmaydi. Asosiy masala shundaki, ikki davlat qoʻshma qiymat zanjirini yaratadilarmi? Agar avtomobilsozlik, toʻqimachilik,

agrosanoat, logistika va energetika kabi sohalarida ishlab chiqarish kooperatsiyasi kengaysa, bu nafaqat eksport hajmini oshiradi, balki butun mintaqaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu maʼnoda, Oʻzbekiston – Qirgʻiziston iqtisodiy sherikligi ikki mamlakat emas, balki butun Markaziy Osiyoning integratsiya modeliga aylanish salohiyatiga ega.

Umumiy madaniy qadriyatlar, tarix va xalqlar oʻrtasidagi samimiy aloqalar ikki davlatning ijtimoiy yaqinlashuviga xizmat qiladi. 2026-yil 21-iyul kuni Bishkek shahrida qirgʻiz tiliga tarjima qilingan “Yangi Oʻzbekiston: Shavkat Mirziyoyev yoʻli” kitobining taqdimoti muvaffaqiyatli boʻlib oʻtdi. Qirgʻiz Respublikasi Davlat kotibi Arslon Koychiyev ushbu nashr zamonaviy Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻli, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat boshqaruvi tizimidagi oʻzgarishlarni aks ettiruvchi muhim asar ekani, kitobning qirgʻiz tiliga tarjima qilinishi esa ikki qardosh xalq oʻrtasidagi madaniy, ilmiy va maʼnaviy hamkorlikni mustahkamlash yoʻlidagi muhim qadam boʻlganini taʼkidladi.

27-28-iyul kunlari Qirgʻizistonning Choʻlponota shahrida boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston madaniyati kunlari ikki xalqning doʻstligi va birodarlik aloqalarining yanada chuqurlashishiga koʻmaklashishi, shubhasiz.

Yiliga 3 milliondan ortiq qirgʻizistonliklarning Oʻzbekistonga tashrifi bu yaqinlikning yana bir yorqin dalili. Bu koʻrsatkich oʻn yil oldingi davrdagiga nisbatan 7 barobar koʻp hisoblanadi. Davlatlar oʻrtasidagi yaqinlashuv faqat siyosiy va iqtisodiy darajada emas, balki oddiy fuqarolar oʻrtasida ham kechayotgani munosabatlarning samimiyligi va chuqurligini koʻrsatadi.

Yaqinda, 24-iyul kuni Qirgʻiziston Prezidenti Sadir Japarov Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni tavallud ayyomi bilan samimiy tabriklab, ikki tomonlama tashabbuslarni shaxsan qoʻllab-quvvatlayotgani va Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyani mustahkamlashdagi ustuvor roli uchun chuqur minnatdorlik bildirdi. Ilgari ikki davlat kun tartibini yopiq chegaralar va bahsli hududlar belgilagan boʻlsa, bugungi kunda muzokaralar markazida – yangi zavodlar, yirik transport koridorlari, energetika loyihalari va kapital harakati turibdi. Oʻzbekiston Prezidentining Bishkekka tashrifi ushbu tarixiy imkoniyatlarni real shartnomalar va ishlab chiqarish quvvatlariga aylantirishda yangi va muhim qadam boʻladi, deb ishonamiz.

Baxtiyor MAHKAMOV,
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

AXBOROT MAKONIDA ISHONCH

OAV va “aql markazlari” mamlakatlarning bir-birini yaxshiroq tushunishiga qanday yordam bermoqda?

Bishkekda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) ga aʼzo davlatlar ommaviy axborot vositalari va tahliiliy markazlarining forumi oʻtkazilmoqda. Qirgʻiz Respublikasining ShHTdagi raisligi doirasida Qirgʻizistonning “Kabar” milliy axborot agentligi va Xitoyning “Sinxua” axborot agentligi tomonidan tashkil etilgan forumda tashkilotga aʼzo davlatlar, kuzatuvchilar va sheriklar boʻlgan 26 mamlakatdan 250 ga yaqin axborot agentliklari rahbarlari, bosh muharrirlar, jurnalistlar, tahliiliy markazlar, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashmoqda.

Hamkorlik

“Yangi davrda “Shanxay ruhi”ning ahamiyati: qadriyatlar yakkidilligidan hamkorlik amaliyoti sari” shiori uchrashuvning bosh mavzusi boʻldi. Ishitirokchilar axborot xavfsizligi, sunʼiy intellekt, dezinformatsiyaga qarshi kurash, tahliiliy markazlarning roli va ShHT makonidagi integratsiya jarayonlarini axboriy jihatdan qoʻllab-quvvatlash masalalarini muhokama qildi.

Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Axborot siyosati xizmati rahbari Dayirbek Oʻrnbekovning soʻzlariga koʻra, ushbu forum ShHT davlatlarining axborot xavfsizligi va intellektual hamkorligini mustahkamlash yoʻlidagi muhim qadamdir. Axborot shiddat bilan tarqalayotgan davrda jurnalistlar va ekspertlar hamjamiyatining roli sezilarli darajada oshmoqda, chunki mamlakatlar oʻrtasidagi ishonch darajasi koʻp jihatdan ularning ishi sifatiga bogʻliq.

– Bizning davrimizda jamoatchilik fikrini shakllantirish, mamlakatlar oʻrtasidagi ishonchli munosabatlar va xavfsizlikni saqlashda media va ekspert markazlarining masʼuliyati darajada oshdi, – dedi u. – Tahliiliy markazlarning chuqur ilmiy tadqiqotlari ommaviy axborot vositalarining tezkorligi, aniqligi va xolisligi bilan birlashishi zamon talabiga aylandi. Ularning uygʻun faoliyati axborot manipulyatsiyalari va haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan xabarlar oqimiga qarshi ishonchli qalqon boʻlib xizmat qiladi, natijada jamoatchilikka faqat tekshirilgan faktlar va ishonchli maʼlumotlar yetib boradi.

“Sinxua” axborot agentligi bosh direktori oʻrinbosari Si Yanszyun forum ShHT davlat rahbarlarining navbatdagi sammiti arafasida va tashkilotning 25 yilligi bilan bir vaqtda oʻtayotganini eslatdi. Oʻtgan davr mobaynida ShHT mintaqaviy hamkorlikning yetuk mexanizmi aylandi va uning taʼsiri allaqachon Yevroosiyo chegaralaridan tashqariga chiqdi.

Si Yanszyun fikricha, tashkilot rivojlanishi bilan birga ommaviy axborot vositalarining masʼuliyati ham ortib bormoqda. Ularning vazifasi voqealarni shunchaki yoritishdan ancha keng. OAV va tahliiliy markazlar mamlakatlarga bir-birini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, jamoatchilik yakkidilligini shakllantiradi, qoʻshma loyihalarni yoritadi, gumanitar aloqalarni mustahkamlaydi va sivilizatsiyalar muloqoti uchun sharoit yaratadi. U forumga ikkita tahliiliy maʼruza tayyorlanganini maʼlum qildi. Birinchisi ShHTning 25 yillik rivojlanish yoʻli va istiqbollarga bagʻishlangan boʻlsa, ikkinchisi global oʻzgarishlar kontekstida Xitoy davlat boshqaruvining zamonaviy gʻoyalarni koʻrib chiqadi. Bunday tadqiqotlar kelgusi hamkorlikning intellektual asosi boʻlishi mumkin.

Ishchi dasturdan tashqari, Bishkekda tashkilotning 25 yilligiga bagʻishlangan “ShHT salohiyatini mustahkamlash: farovonlik sari taraqqiyot yoʻlida” nomli fotokongress ochildi. ShHT kotibiyati va “Sinxua” axborot agentligi tomonidan tayyorlangan ekspozitsiya tashrif buyuruvchilarni birlashma rivojlanishining asosiy bosqichlari va uning muhim loyihalari bilan tanishtiradi. Maʼruzalar mavzulari xilma-xil boʻlishiga qaramay, aksariyat ishtirokchilar jurnalistika soʻnggi oʻn yilliklardagi eng jiddiy oʻzgarishlarni boshdan kechirayotgani haqidagi fikrda yakkil boʻldi. Raqamli texnologiyalar axborot almashinuvini bir necha bor tezlashtirdi, lekin shu bilan birga feyklar, manipulyatsiyalar va axborot manbalariga ishonch inqirozi muammosini yanada boʻrttirib yubordi.

Ushbu fikrni “Kabar” milliy axborot agentligi direktori Mederbek Shermetaliyev ham taʼkidladi. Uning fikricha, Qirgʻizistonning ShHTdagi raisligi uyubiley yiliga toʻgʻri kelgani joriy forumga alohida ahamiyat bagʻishlaydi. Agar ilgari hamkorlikning asosiy yoʻnalishi siyosiy aloqalar va transport tarmoqlarini rivojlantirishni nazarda tutgan boʻlsa,

endilikda intellektual hamkorlik tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. U dunyodagi misli koʻrilmagan oʻzgarishlar sharoitida masʼuliyatli jurnalistika, professional tahlil va ishonchli faktlarga asoslangan axborot siyosati davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro anglashuvni mustahkamlashning eng muhim omillariga aylanayotganini taʼkidladi.

Neyrotarmoqlar yangiliklarda qatnashmoqda

Yangi chaqirilgan haqidagi suhbat amaliy davom etdi. “Qazcontent” AJ boshqaruvi raisi Adil Seyfullin sunʼiy intellekt (SI) tahririyatlarining odatiy ish quriliga aylanganini bildirdi. Shuningdek, Sling keng joriy etilishi yangi tahdidlar, jumladan, feyk kontent tarqalishi, axborot manipulyatsiyalari



va auditoriyangani eʼlon qilayotgan materiallarga ishonchi pasayishi bilan birga kechmoqda. U yechimlardan biri sifatida yangiliklar, fotosuratlar, videomateriallar, infografika, tahliiliy nashrlar va maʼlumotomallarni birlashtirgan ShHTning yagona raqamli mediaplatformasini yaratishni taklif qildi. Bunday maydoncha tahririyatlarga tekshirilgan maʼlumotlar va rasmiy axborotlarni tezoq almashishga, jurnalistlarga esa ekspertlar xulosalari va ishonchli manbalardan tezkor foydalanishga imkon beradi.

Yana bir tashabbus – sunʼiy intellektni qoʻllash masalalari boʻyicha ShHT qoʻshma mediamarkazini tashkil etish. Adil Seyfullin fikricha, ushbu markaz tajriba almashish, Sldan foydalanish boʻyicha tavsiyalar tayyorlash va notoʻgʻri maʼlumotlar tarqalishiga qarshi birgalikda kurashish uchun jurnalistlar, tahlilchilar,

IT-mutaxassislari va raqamli xavfsizlik boʻyicha ekspertlarni birlashtirishi mumkin. Shuningdek, u ShHT davlatlari tahririyatlari oʻrtasida professional almashinuvlarni kengaytirishni muhim deb atadi, chunki jurnalistlarning shaxsiy aloqalari hamon ishonch va uzoq muddatli hamkorlik asosi boʻlib qolmoqda.

“Nomad TV” (Qirgʻiziston) telekanali bosh muharriri Natalya Krolevich qayd etganidek, yaqin vaqtgacha professional hamjamiyat sunʼiy intellekt jurnalistlarning oʻrnini bosa oladimi yoki yoʻqmi, degan masalani muhokama qilardi. Endilikda bu savol oʻz dolzarbligini yoʻqotdi. SI tahririyat ishinung kundalik vositasiga aylandi. U matnlarni tarjima qilish, katta hajmdagi maʼlumotlarni tahlil etish, materiallar

tillarda bilimlar bazasini shakllantirishi va global raqamli makonda sifatli axborot ishtirokini kengaytirishi zarur. Kelajakda sunʼiy intellekt mintaqa mamlakatlarini qanchalik xolis tasvirlashi koʻp jihatdan shunga bogʻliq.

Amaliy tashabbuslar va aniq mexanizmlar

Forumdagi munozaralarning alohida yoʻnalishi Shanxay hamkorlik tashkilotining oʻzgarayotgan dunyodagi roli va uning yanada rivojlanishi uchun qanday vositalardan foydalanishi kerakligiga bagʻishlandi. ShHT mavjud boʻlgan 25 yil ichida shunchaki siyosiy muloqot maydoni boʻlishdan toʻxtadi. Bugungi kunda uning samaradorligi aniq

Markaziy Osiyo transport infratuzilmasini izchil rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi va investitsiyaviy hamkorlik borasida muayyan tajribaga ega ekanini iqtisodiyot va madaniyat boʻyicha Hindiston – Xitoy kengashi bosh kotibi Muhammad Soqib ham qayd etdi. Shu bilan birga, ekspert mintaqa mamlakatlari bir vaqtning oʻzida geosiyosiy beqarorlikka, jahon iqtisodiy arxitekturasining oʻzgarishiga, tezlashgan texnologik rivojlanish va raqamli transformatsiya zaruratiga javob berishga majbur ekanligini taʼkidladi. Bunday sharoitda davlatlar oʻrtasida tajriba almashish alohida ahamiyat kasb etadi. M. Soqibning fikricha, Markaziy Osiyo “Bir makon, bir yoʻl” tashabbusini amalga oshirish va xalqaro transport yoʻlaklarini rivojlantirish doirasida allaqachon samaradorligini isbotlagan koʻplab yechimlarni oʻz sharoitlariga moslashtirgan holda koʻllashi mumkin.

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi

Eng yangi tarix markazi boʻlim boshligʻi

Mirzohid Rahimov taʼkidlaganidek, ShHT

uchun Buyuk Ipak yoʻlidagi sivilizatsiyalar

hamkorligining boy merosiga tayanish va

tahliiliy markazlar oʻrtasidagi aloqalarni

kengaytirish orqali mintaqaning oʻzaro

bogʻliqligini mustahkamlash, uning

barqaror rivojlanishi va osoyishtaligiga

koʻmaklashish muhimdir.

Spikerlar ShHTning kelgusi

rivojlanishini sifatli axborot bilan

taʼminlamasdan turib amalga oshirib

boʻlmisligi haqidagi fikrda yakkil boʻldi.

Ommaviy axborot vositalari va tahliiliy

markazlar zimmasiga umumiy ishonch

makonini shakllantirishga koʻmaklashish

vazifasi tobora koʻproq yuklanmoqda,

bu esa ShHT davlat rahbarlarining

navbatdagi sammiti arafasida alohida

dolzarblik kasb etadi.

Ushbu salohiyatni roʻyobga chiqarish

uchun sanoat kooperatsiyasini

Ruslan ALISHEROV
(“Xalq soʻzi”).

Endilikda “my.gov.uz” portalida taqiq yoki xatlov qoʻyilgan turarjoyga garovga oluvchining roziligisiz yashash joyi (doimiy) yoki turgan joyi (vaqtincha) boʻyicha roʻyxatdan oʻtish imkoniyati yaratildi.

TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA HAMJIHATLIK POYDEVORI

TOTUVLIK – ENG KATTA BOYLIGIMIZ

Juzimgul ABDRASULIYEVA,
Chimboy tumanidagi “Gujimli” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi,
“Do‘stlik” ordeni sohibi:

– Men qoraqalpoq farzandi sifatida mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlar-aro totuvlik va bag‘rikenglik muhitini eng katta boyligimiz, deb bilaman. Bu qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz taraqqiyotli, balki har bir mahalla, har bir oilaning farovon hayoti uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda inson qadriini yuksaltirish, mahallalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar Qoraqalpog‘istonda ham izchil amalga oshirilmoqda. Buni biz har kuni o‘z hayotimizda, uddalanayotgan bunyodkorlik ishlari va yaratilayotgan imkoniyatlarda his etmoqdamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog‘istonga har bir tashrif davomida hududni barqaror

rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash masalalariga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Ana shu ezgu siyosat natijalari bugun respublikaning barcha shahar va tumanlarida, jumladan, Chimboyda ham o‘z ifodasini topmoqda.

Gujimli mahallasi misolida aytadigan bo‘lsam, bu yerda turli millat va elat vakillari o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitida yashab, bir maqsad – Vatanimiz ravnaqi va farzandlarimiz kelajagi yo‘lida mehnat qilmoqda. Mahallamizning eng katta boyligi ham ana shu ahillik va birdamlikdir.



Keyingi yillarda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida qator amaliy ishlar bajarildi. “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida mahalla ichki yo‘llarining bir qismi asfaltlandi, tomorqa yerlarini sug‘orish uchun suv nasosi o‘rnatildi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida “Jambas jap” kanalida betonlash ishlari amalga oshirildi, elektr ta‘minotini yaxshilash maqsadida yangi beton ustunlar o‘rnatilib, elektr tarmoqlari yangilandi.

Mamlakatimizda har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va an‘analarni asrab-avaylash, ularni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Qoraqalpog‘istonda ham milliy qadriyatlar, ona tilimiz, adabiyotimiz, san‘atimiz va boy madaniy merosimizni asrash hamda kelajak avlodga yetkazishga davlat siyosati darajasida katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu e‘tiborni biz o‘z faoliyatimizda ham, hayotimizda ham chuqur his etamiz.

TAQDIRIMIZ HAM, BAXTIMIZ HAM BIR

Jalg‘as JUSIPOV,
(Tomdi tumanidagi Tomdibuloq ovuli):

– Tomdi tumanimizda Balqi Bazar, Kushekbay jirov, Batirbay, Yesesusin, Qaldash, Utep Tansiqbayev, Sovet Jamang‘arayev, Kalendar Beysenbayev, Abdimurat Janaxmetov kabi jirovlar yashab, qozoq xalqining terma va dostonlarini avloddan-avlodga yetkazib kelgan. Bugun sakson yosh ostonasida ularning an‘anasini Qizilqum kengliklarida davom ettirish kaminaga nasib qilib, faoliyatimda ustozlik martabasiga erishdim. Albatta, bu mamlakatimizda xalqimizning urf-odat, an‘ana va qadriyat, san‘at va madaniyatiga samimiy hurmat hamda e‘tibor samarasidir.

Yaratganning inoyati bilan o‘zbek va qozoq xalqi qadim-qadimdan qo‘shni yashab, orzu-niyatlari, ertangi kundan umid va maqsadlari qorishib ketgan. Mustaqillikning sinovli yillarida bu ko‘zga yanada yaqqol tashlandi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Qozog‘istonning chinakam bir-biriga yaqinlashgani o‘zaro yelkadoshlikda yangi davrni boshlab berdi.

Bugun Navoiy viloyatida 70 dan ortiq millat va elatlar vakillari istiqomat qilib, ta‘lim olti tilda olib boriladi. Qozoq tilida 59 ta maktab faoliyat yuritadi. Ayni chog‘da, qozoq milliy madaniy markazi viloyatdagi o‘ndan ortiq milliy madaniy markazlarning eng yirikidir. Turli tadbirlarda milliy bag‘rikenglikni targ‘ib etish, qozoq xalqining qadriyat, urf-odat, an‘analarni asrab-avaylash va keyingi avlodga yetkazish, farzandlarimizni yoshligidan barcha millat vakillariga hurmat ruhida tarbiyalashga harakat qilaymiz.

Bugun mamlakatimizda kechayotgan yangilanishlarda turli millat vakillari qatori qozoqlarning ham faol ishtirok etayotgani ularning el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashayotgani, o‘zaro hamjihatlikni eng katta baxt deb bilayotgani ifodasidir.



YAGONA VATANDA YAGONA XALQMIZ!

Ma‘murjon BOZORALIYEV,
Respublika qirg‘iz milliy madaniy markazi faoli, “Mash‘al” gazetasi bo‘lim mudiri:

– Serquyosh O‘zbekiston – barchamizning kindik qonimiz to‘kigan tabarruk zamin, muqaddas Vatan. Ota-bobalarimiz qadim-qadimdan bir el bo‘lib, shu makonda yashab kelgan. Birgalikda yaxshi kunlarda quvongan, dardu tashvishlarni ham birgalikda boshidan kechirgan. Inchinun, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari etu timoq, bir tanu bir jondir.

Bir-birini bir zum ko‘rmasa sog‘inib, bir-birining diydoridan quvonadigan, asrlar davomida og‘a-ini va opa-singil bo‘lib, o‘rtadagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlayotgan, ikki xalq yagona Vatanda qadrdon qo‘shni, quda-anda bo‘lib taraqqiyotga yuz tutmoqda. Bu, albatta, O‘zbekistonda millatlararo do‘stlikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar samarasi, shu bilan birga, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik mevasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qat‘iy siyosiy irodasi, oqilona siyosati tufayli ikki davlat o‘rtasidagi xiraliklar tumanday tarqab ketdi. Bugun ushbu mamlakatlar birgalikda rivojlanishning yangi davriga qadam qo‘ymoqda.

Turkiy xalqlarning buyuk bobokaloni hazrat Alisher Navoiyning qabrini ziyorat qilish juda katta orzuim. Shuningdek, atloqi qirg‘iz adibi, o‘zbek xalqining qadrdon do‘sti Chingiz Aytmatov mangu qo‘nim topgan maskan ziyorati ham orzu bo‘lib kelayotgan edi. Ochig‘i, keyingi o‘ttiz yilda Qirg‘izistonga borganimni eslay olmayman. Oxirgi yillarda esa bir emas, bir necha marta ziyoratga, sayohatga borib keldik. Bir guruh mahalladoshlarimiz bilan shu hafta Issiqko‘lga dam olishga borish uchun safar taraddudida turibmiz. Bularning barchasi o‘zaro ishonch, hamkorlik, do‘stlik va totuvlikning hosilasi.

Shu muqaddas zamin – yagona Vatanda yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratishda baqadri imkon harakat qilamiz. Yangi O‘zbekistonning yorug‘ istiqboli uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solamiz.



SHUKRONALIK MANZILI

Adolatxon RAHMONOVA,
Andijon viloyati uyg‘ur milliy madaniy markazi rahbari,
“Do‘stlik” ordeni sohibi:

– Yaratganga behisob shukr, bizga tinch, osoyishta Vatanda yashash baxti nasib etgan. Turli millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek ahil-inoq hayot kechirmoqda. Ana shunday bag‘rikeng muhitda uyg‘urlar ham teng huquq va keng imkoniyatlardan bahramand bo‘lib, o‘z tili, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini hamda an‘analarni asrab-avaylab kelayotganidan cheksiz mamnunmiz.

Bu ezgu muhit Andijon viloyatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayni paytda hududda 30 ming nafardan ziyod uyg‘ur millati vakillari istiqomat qilib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Ular ta‘lim, tibbiyot, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda jonbozlik ko‘rsatib, el hurmatiga sazovor bo‘layotir. Ko‘plab millatdoshlarimizning davlat mukofotlari va yuksak e‘tiroflarga munosib ko‘rilayotgani mamlakatimizda inson qadri yuksak darajada e‘zozlanayotgani ifodasidir.

Men viloyatning chekka qishloqlaridan birida yashayman. Biroq markazdan olis hududda istiqomat qilish hayotimizga hech qanday noqulaylik tug‘dirmaydi. Farovon turmush kechirish, halol mehnat, farzandlarni bilimli va barkamol etib tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Eng muhimi, har kim o‘z ona tilida erkin so‘zlashadi, milliy an‘analarga amal qiladi, qadriyatlarini e‘zozlaydi. Bu esa diyorimizda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik mustahkam qaror topganini anglatadi.

Umrin davomida dunyoning qator mamlakatlarida bo‘ldim. Albatta, har bir davlatning o‘ziga xos taraqqiyoti va jozibas bor. Ammo xorijda ikki-uch kun bo‘lganimdan so‘ng tug‘ilib-o‘sgan qishlog‘imni, mehribon insonlarni, muqaddas zaminimizni qattiq sog‘inaman. Amin bo‘lamanki, inson uchun ona makonidan aziz ne‘mat yo‘q ekan. Shu bois imkonni boricha tezroq O‘zbekistonga qaytib, yurtimizda kechayotgan bunyodkorlik ishlari va keng ko‘lamli islohotlarga o‘z hissamni qo‘shishga intilaman.



SHU YURTDA YASHAYOTGANIMDAN FAXRLANAMAN

Ramal MIRZOYEV,
Samarqand viloyati ozarbayjon milliy madaniy markazi rahbari:

– O‘zbekiston – boy tarixi, qadimiy madaniyati va betakror ruhiyatiga ega o‘lka. Lekin uning eng katta boyligi odamlari o‘rtasidagi hamjihatlik, o‘zaro hurmat, samimiyat va do‘stlik muhitidir.

Faoliyatimiz davomida o‘zbek va ozarbayjon xalqlari taqdiri qanchalik uzviy bog‘lanib ketganiga takror-takror guvoh bo‘lamiz. Cheksiz iftixor va hayajon bilan ayta olamanki, O‘zbekistonda

yashayotganimdan faxrlanaman va o‘zimni ushbu ikki qardosh xalq farzandi deb bilaman. Bu zaminda umrim davomida, zarracha bo‘lsa ham, o‘zimni begona his qilmaganman. Qanday masala yoki tashabbus bilan murojaat etmaylik, biz har doim samimiy hurmatni, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni ko‘ramiz. Ushbu ishonch va xotirjamlik hissi



tasodif emas. Bu millatlararo totuvlikni mustahkamlash, har bir xalqning an‘analarni asrab-avaylash hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratayotgan O‘zbekiston Prezidentining oqilona va vazmin siyosati natijasidir. Millatlararo totuvlik

va xalqlar do‘stligi O‘zbekistonning eng asosiy yutug‘i bo‘lib, uni ko‘z qorachig‘idek asrashimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz shart. Markaz rahbari sifatida men o‘zimning bosh vazifamni ushbu rishtalarni yanada mustahkamlashda, umumiy uyimiz bo‘lgan O‘zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo‘shishda hamda saxovatli o‘zbek zaminini bizga ko‘rsatayotgan yuksak ishonch va hurmatni oqlashda ko‘raman.

MUSHTARAK MAQSADLAR IJOBATI

Galina AKOPJANOVA,
Farg‘ona viloyati slavyan milliy madaniy markazi rahbari:



– Ayni paytda Farg‘ona viloyatida 8 ta milliy madaniy markaz faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu boradagi ezgu tashabbuslar doirasida yaqin yillarda Farg‘ona shahrida muhtasham “Do‘stlik uyi” qad rostladi. Slavyan milliy madaniy markazi faollari uchun ham ushbu maskanda zamonaviy sharoitlar muhayyo etilgan. Barcha markazlar yangi avtomashina, eng so‘nggi rusumdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta‘minlangan. Milliy qadriyat va an‘alarimizni

asrab-avaylash, o‘z navbatida, qardosh xalqlar urf-odatlarini targ‘ib etish maqsadida markaz qoshida folklor jamoalari, havaskorlar teatri guruhi, bolalar ansambli faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizning milliy bayramlari, qutlug‘ sanalar munosabati bilan uyushtiriladigan tadbirlarda qatnashamiz. Yoshlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik tufayli markazimiz a‘zolari bog‘lan navqiron avlod vakillari yurtimiz va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar, sport musobaqalari, ijodiy tanlovlarda g‘olib bo‘lmoqda. Birgina joriy yilning o‘zida markazimiz a‘zolari AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiyada bo‘lib o‘tgan qator nufuzli tadbirlarda yurtimiz sharafigi

munosib himoya qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Slavyan milliy madaniy markazi a‘zolari viloyatdagi xayriya aksiyalarida ham doim faol. Urush va mehnat faxriylari holidan muntazam xabar olaypmiz, saraton kasali bilan og‘riyotgan bemorlar hamda otana qaramog‘isiz qolgan bolalarga bepul dori-darmon, tozalik-gigiyena vositalari va sovg‘alar ulashildi.

Mushtarak orzu va maqsadlar ijobati yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz xalqimizning o‘zaro hamjihatligi, O‘zbekistonning ravnaqi uchun astoydil kamarbasta bo‘lishga qaratilgan. Har yili yurtimizda keng nishonlanadigan 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni bayrami ayni jarayondagi ishlarni sarhisob etish, yangi reja va marralarni belgilab olishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

EZGULIK ASLO UNUTILMAYDI

Li RODION,
Buxoro viloyati koreys milliy madaniy markazi rahbari:



– O‘zbekistondagi qavmimiz tarixi haqida o‘ylarkanmiz, beixtiyor o‘tgan asrning suronli 30-yillarini eslashga to‘g‘ri keladi. 1937-yilga qadar ota-bobalarimiz Uzoq Sharqda istiqomat qilishar edi. Ammo o‘sha paytdagi sho‘rrolar tuzumi ularni majburan O‘rta Osiyoga ko‘chirdi.

Keksalarimizning hikoyalariidan yaxshi bilamizki, ana shunday mushkul damlarda mahalliy aholi, xususan, o‘zbeklar koreyslarga mehr-oqibat ko‘rsatishgan. Oziq-ovqat, uy-joy ta‘minotida ko‘mak berishgan. Bir mayvati qirg‘ bo‘lib yeyishgan. Biz bu ezgulikni hech qachon unutmaymiz.

Darvoqe, 2017-yilning 3-iyulida Toshkentdagi Seul parki hududida o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, mehr-u saxovati sharafiga

qavmimiz nomidan minnatdorlik ramzi sifatida monument o‘rnatilgan.

Koreyslar mehnatsevarligi bilan tanilgan. Ular orasidan ko‘plab shifokorlar, o‘qituvchilar, muhandislar, olimlar, tadbirkorlar san‘atkorlar yetishib chiqdi. Koreys oshxonasi mahalliy madaniyatning ajralmas bir bo‘lagiga aylandi. Biz qariyb to‘qson yildirki, o‘zimizning madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, tilimiz, qadriyatlarimizni ko‘z qorachig‘idek asrab kelyapmiz. Buning uchun mamlakatimiz, jumladan, Buxoroda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Markazimiz viloyatda yashovchi koreyslarni o‘z atrofiga jamlab, istiqol bayrami, Navro‘z ayyomi, shuningdek, turli sanalar munosabati bilan o‘tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. Yurtimizda yashovchi turli millat va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashda o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tayapti. Biz bundan keyin ham Vatanimiz – O‘zbekiston iqtisodiyoti, madaniyatining gullab-yashnashiga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

ENG OLIY QADRIYAT

Dilnoz UMURZOQOVA,
Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi
Huquqiy axborot shu‘basi bosh maslahatchisi:

– Qaysi millatga mansubligimizdan qat‘i nazar, eng katta baxtimiz – O‘zbekiston farzandi ekanimiz. Bolaligim Sirdaryoning ko‘hna Xovos qishlog‘ida o‘tdi. Milliy qadriyatlar va an‘analarga boy muhitda ulg‘aydim. Keyinchalik Guliston shahriga kelin bo‘lib tushdim. Bu yerda ham turli millat va elat vakillari – o‘zbek, qozoq, rus, koreys, tatar va boshqa xalqlar bilan bir mahallada ahil-inoq yashab kelmoqdamiz. Mehr-oqibat, hurmat va insoniylik barchamizni birlashtirib turadi.

2018-yildan buyon Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasida mehnat qilaman. Shu yillar davomida turli millat vakillari bilan bir jamoada ishladim. Ish jarayonida hech qachon millat ajratilmaydi. Bu yerda insonning halolligi, mas‘uliyati va Vatanga sadoqati qadrlanadi.

Men tojik millati vakili sifatida o‘z milliy qadriyatlarimiz, ona tili va urf-odatlarimizni saqlab kelmoqdaman. Shu bilan birga, davlat tili –



o‘zbek tili ham qalbmiga yaqin tili. Ikki xalqning madaniyati, qadriyatlari va an‘analari bir-biriga qanchalik yaqin ekanini har kuni yagona teran his qilaman.

Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari ahil va inoq yashamoqda. Bu raqam ortida minglab taqdirilar, millionlab orzu-umidlar va eng muhimi, o‘zaro hurmat mujassam. Yu tinchlik va totuvlik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Uni asrash va mustahkamlash uchun davlatimiz tomonidan barcha fuqarolarga teng huquq va keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Biz turli millat vakillari bo‘lishimiz mumkin, ammo bitta Vatan farzandlarimiz. Shu muqaddas yurtning tinchligi, taraqqiyoti va kelajagi uchun birgalikda mehnat qilish barchamizni birlashtirib turadigan eng oliy qadriyatdir.

«Xalq so‘zi».

Toshkent shahrida maydoni 5 ming metr kvadratdan ortiq savdo markazlarida kitob do‘konlarini tashkil etishning majburiy tartibi joriy qilinadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 629. Buyurtma G-742. 16 692 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mulfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmniylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhah S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 00.15 Topshirildi – 00.20

1 2 3 4 5 6